



DIPLOMATIC TERMS IN THE DARI LANGUAGE AND THEIR HISTORY

Nafisa Abduvaliyeva

Tashkent State University of Oriental Studies

“Translation Studies, Linguistics, and International Journalism” Graduate School

Dari–English, 1st-year student

Tashkent, Uzbekistan

Kh. Inomiddinov

Senior Lecturer, Graduate School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: diplomacy, diplomatic term, diplomatic document, dictionary, lexicon, political letter, treaty, ambassador, embassy, meaning.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: Diplomacy plays an important role in regulating political, economic, and cultural relations between states. Each language has its own terminology in the diplomatic sphere, which develops under the influence of historical processes, political changes, and international relations. Dari is one of these languages, and as the official language of Afghanistan, it is widely used in diplomatic correspondence, international negotiations, and official state documents. This article analyzes the origin, development, and historical foundations of diplomatic terms in the Dari language.

DARIY TILIDA DIPLOMATIK TERMINLAR VA ULARNING TARIXI

Nafisa Abduvaliyeva

“Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dariy-ingliz 1-kurs talabasi

Toshkent, O‘zbekiston

X. Inomiddinov

TDSHU, Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabi katta o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Diplomatiya, diplomatik termin, diplomatik hujjat, lugʻat, leksika, siyosiy maktub, bitim, elchi, elchixonona, maʼno.

Annotatsiya: Diplomatiya davlatlar oʻrtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni tartibga solishda muhim rol oʻynaydi. Har bir til diplomatik sohada oʻziga xos terminologiyaga ega boʻlib, bu terminlar tarixiy jarayonlar, siyosiy oʻzgarishlar hamda xalqaro munosabatlar taʼsirida shakllanadi. Dariy tili ham shunday tillardan biri boʻlib, u Afgʻonistonda rasmiy til sifatida diplomatik yozishmalar, xalqaro muzokaralar va davlat hujjatlarida keng qoʻllaniladi. Mazkur maqolada Dariy tilidagi diplomatik terminlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va ularning tarixiy asoslari tahlil qilinadi.

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ НА ДАРИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ИСТОРИЯ

Нафиса Абдувалиева

Высшая школа «Переводоведение, лингвистика и международная журналистика»

Студентка I курса, направление «Дари – английский»

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Х.Иномиддинов

Старший преподаватель

Высшей школы иранских и афганских исследований

Ташкентского государственного университета востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дипломатия, дипломатический термин, дипломатический документ, лексика, политическое письмо, посол, посольство, значение.

Аннотация: Дипломатия играет важную роль в регулировании политических, экономических и культурных связей между государствами. Каждый язык имеет свою собственную терминологию в дипломатической сфере, которая формируется под влиянием исторических процессов, политических изменений и международных отношений. Дарийский язык является одним из таких языков и, будучи официальным языком Афганистана, широко используется в дипломатической переписке, международных переговорах и официальных государственных документах. В данной статье анализируются происхождение, развитие и исторические основы дипломатических терминов на дарийском языке.

Kirish. Diplomatiya har qanday davlatning tashqi siyosiy faoliyatida muhim vosita hisoblanadi. Diplomatik xizmat uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash xalqaro muloqot protokoli va etiketining asosiy terminlarini bilishni talab qiladi. "Diplomatik til" tushunchasi ikki

tushunchaga ega. Bir tomondan, u turli diplomatik tadbirlar o‘tkaziladigan hamda xalqaro darajadagi turli hujjatlar tuziladigan tilni anglatadi. Boshqacha aytganda, diplomatik hujjatlar tili — bu muayyan davlatning tashqi dunyo bilan muloqot qiladigan tilidir. Boshqa tomondan esa, u inson faoliyatining mazkur sohasiga xizmat qiladigan leksik birliklar majmuasini bildiradi.

Avvalombor “Diplomatik termin o‘zi nima?” degan savolga javob berishimiz kerak. G.F.Berriyning fikriga ko‘ra diplomatik termin-bu diplomatiya faoliyati jarayonida davlatlar o‘rtasidagi muzokaralar, vakillik va rasmiy aloqalarni ifodalash uchun ishlatiladigan maxsus so‘z va iboralar tizimidir. Bu terminlar diplomatlarning professional faoliyati natijasida shakllangan bo‘lib, xalqaro munosabatlarda aniq va rasmiy ma‘noga ega. Diplomatiya kasb sifatida rivojlangan sari u o‘ziga xos maxsus terminologiya va kategoriyalarni yaratadi, chunki diplomatik faoliyat suveren davlatlar o‘rtasidagi nozik munosabatlarni ifodalaydi va bu til juda aniq ma‘nolarni talab qiladi. Uni tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, diplomatiya bilan bog‘liq eng qadimgi termin “diploma” hisoblanadi. Bu so‘z qadimgi Yunon tilidagi “diplōma” (δίπλωμα) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ikki buklangan hujjat” degan ma‘noni bildiradi. Qadimgi davrlarda hukmdorlar tomonidan berilgan rasmiy hujjatlar ikki buklangan shaklda bo‘lgan va ular elchilar yoki rasmiy vakillarga maxsus vakolat berish uchun ishlatilgan. Undan tashqari turli davlatlarda ishlatilgan eng qadimiy terminlar mavjud. Bularga misol qilib, AQSh diplomatik amaliyotida dastlab ishlatilgan muhim terminlardan biri “ambassador” (elchi) hisoblanadi. Bu termin XVIII asr oxirida AQSh mustaqillikka erishgandan keyin diplomatik vakillarni belgilash uchun qo‘llanila boshlagan. Germaniya hududida diplomatik terminologiya asosan “Gesandter” (vakil, elchi) termini bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu termin Muqaddas Rim imperiyasi davrida davlatlar o‘rtasidagi diplomatik vakillarni ifodalash uchun ishlatilgan. Buyuk Britaniyada diplomatik terminologiyada eng qadimgi ishlatilgan terminlardan biri “envoy” (vakil) hisoblanadi. Bu termin XVII–XVIII asrlarda ingliz diplomatik tizimida keng qo‘llanilgan va boshqa davlatlarga yuborilgan rasmiy vakillarni bildirgan. Oxirgi termin Afg‘on diplomatik amaliyotida qadimdan ishlatilgan terminlardan biri “safir” (elchi) hisoblanadi. Bu termin arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, musulmon davlatlari o‘rtasidagi diplomatik vakillarni anglatgan. Shuningdek, dari tili diplomatik terminologiyasi bo‘yicha juda ko‘plab olimlar va professorlar izlanishlar olib borgan. Misol uchun, Dinora Azimjanova va Kamola Azizxodjayeva fors-dariy tilining diplomatik leksikasi evolyutsiyasi haqida maqola yozganlar. Bu maqola dariy tilidagi diplomatik so‘zlar tizimi shakllanishi, tarixiy bosqichlari va jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar bilan bog‘lanishini o‘rganadi. Maqola fors-dariy tilining ijtimoiy-siyosiy leksikasi (shu jumladan diplomatik terminologiya qatlamini) tahlil qiladi. Ammo Afg‘oniston ichida aynan diplomatik terminologiya bo‘yicha ko‘p izlanishlar qilinmagan bo‘lsa-da, umumiy Dari (Afg‘on fors) leksikasini o‘rgangan tadqiqotchilar mavjud, ularning ishlarida diplomatik leksika qatlamlari ham tahlil qilinadi. Masalan, Mojawer

Ahmad Zyar — afgʻon tilshunos olimi boʻlib, fors/Dari tilining tarixiy va struktural tahlili boʻyicha katta tadqiqotlar olib borgan.

K. Azizxodjayevaning fikriga koʻra, diplomatik soʻz boyligi murakkab va doimiy oʻzgarib turadigan tizimdir. U turli tillar va madaniyatlar taʼsiri ostida rivojlanadi. Diplomatik soʻzlar va iboralardagi oʻzgarishlar turli madaniyatlar va davlatlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarning murakkab tarixini, shuningdek, xalqaro maydon sharoitlarining oʻzgarishiga moslashuv jarayonini aks ettiradi.

Dariy tilining diplomatik til sifatida qoʻllanilishi tarixiga nazar soladigan boʻlsak, IX–X asrlardan yaʼni Somoniylar, Gʻaznaviylar va Saljuqiylar davridan boshlab rivojlangan. Biroq uning ildizlari Ahamoniylar davridagi qadimgi fors tilida olib borilgan diplomatik yozishmalar anʼanalariga borib taqaladi. Oʻsha davrda bu til shartnomalar, diplomatik yozishmalar va boshqaruv hujjatlarini qayd etishda qoʻllanilgan. Oʻrta asrlarda islom dinining keng tarqalishi va yangi sulolalarning shakllanishi bilan fors va dariy tillari rivojlanishda davom etdi va uning diplomatik lugʻat boyligi yangi terminlar va tushunchalar bilan boyidi. Yangi davr esa oʻz bilan Yevropa taʼsirini olib keldi. Bu tilga koʻplab chet tilidagi terminlarning kirib kelishiga sabab boʻldi va ular yangi siyosiy, texnologik hamda madaniy voqealarni aks ettira boshladi.

Tilning bunday rivojlanishi jarayonida nafaqat yangi soʻzlarning kirib kelishi yoki yangi leksemalarning paydo boʻlishi, balki soʻzlar va iboralarning maʼnosi va ular qanday ishlashini oʻrganishda ham muhim oʻzgarishlar yuz beradi. Boshqacha aytganda, ayrim leksemalarning maʼno doirasi kengayishi yoki torayishi mumkin. Baʼzilarining maʼnosi oʻzgaradi, ayrimlari esa maʼlum tushunchani ifodalash zarurati yoʻqolishi sababli asta-sekin isteʼmoldan chiqib ketadi.

IX–X asrlarga kelib Markaziy Osiyo va Xuroson hududlarida yangi fors tili — dariy tili shakllanib, adabiy va rasmiy til sifatida keng qoʻllanila boshladi. Ayniqsa Somoniylar davrida dariy tili davlat boshqaruvi, ilm-fan va adabiyot tiliga aylandi. Bu davrda diplomatik yozishmalar, davlat farmonlari va saroy hujjatlarida dariy tilidan foydalanish kengaydi. Shu bilan birga, arab tilidan koʻplab siyosiy va huquqiy terminlar kirib kelib, diplomatik lugʻat boyligini yanada boyitdi.

Keyingi asrlarda Gʻaznaviylar va Saljuqiylar davrlarida ham dariy tili saroy va diplomatiya tili sifatida muhim mavqega ega boʻlib qoldi. Bu davrda turli davlatlar oʻrtasidagi yozishmalar, siyosiy maktublar va shartnomalar koʻpincha fors-dariy tilida tuzilgan. Natijada dariy tili nafaqat Eron va Markaziy Osiyoda, balki Hindiston va Yaqin Sharq hududlarida ham diplomatik aloqa vositasi sifatida qoʻllanila boshladi.

Yangi davrda xalqaro siyosiy tizimning oʻzgarishi va Yevropa davlatlari bilan aloqalarning kuchayishi natijasida dariy tilining diplomatik leksikasida ham muhim oʻzgarishlar yuz berdi. Yangi siyosiy tushunchalar, texnologik rivojlanish va xalqaro tashkilotlar faoliyati bilan bogʻliq koʻplab terminlar boshqa tillardan oʻzlashtirildi. Natijada dariy diplomatik terminologiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlar talablariga mos ravishda rivojlanib bordi. Dariy tili, fors tilining markaziy

osiyolik shakli sifatida, uzoq tarix davomida nafaqat adabiyot va madaniyat, balki diplomatiya va davlat boshqaruvi sohalarida ham faol qo'llanilgan. Har qanday til singari, dariy tilida ham leksik o'zgarishlar yuz beradi, ularning tabiati va tezligi esa turli lingvistik va ekstralingvistik omillarga bog'liq.

Dariy tili diplomatiyasi terminologiyasiga bir nechta insonlar o'zlarining yozishmalar, hujjatlari va asarlari bilan hissa qo'shgan. Masalan Ruzbih va boshqa tarixchilar tarixiy yozuvlar, siyosiy va davlat hujjatlarini o'rganishi natijasida dariy tili diplomatik terminlarini rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ushbu tarixchilar diplomatik yozishmalar, shartnomalar va elchixonalar bitimlaridagi so'zlarni saqlab, ularning ishlatilish tarixini belgilab bergan. Bu orqali atamalar jamiyatda qaysi kontekstda qo'llanganini aniqlash mumkin. Undan so'ng Zabihollah Safo va Ehsan Yarshater (XX asr) "Persian Literature, History of Iranian Literature" asarini yozgan. Bu zamonaviy olimlar fors va dariy tilining diplomatik va siyosiy leksikasini sistematik tarzda o'rgangan, terminlarning tarixiy rivojlanishini tahlil qilgan. Shu bilan birga, ular qadimiy hujjatlar va nasriy adabiyotdagi atamalarning bugungi diplomatik tilga qanday ta'sir qilganini ko'rsatgan. Michael Hillmann, William Hanaway, Heshmat Moayyad va boshqalar fors va dariy she'riyatida va adabiyotida diplomatik terminlar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ular diplomatik so'zlar, janrga bog'liq leksik o'zgarishlarni tahlil qilib, klassik va zamonaviy davrni solishtirgan. Bu ishlar orqali dariy diplomatik leksikaning bugungi shakli va tarixiy ildizlari aniqlangan.

Jamiyatda yangi voqealar paydo bo'lishi, siyosiy tizimlarning o'zgarishi, texnologik va ilmiy yangiliklar, xalqaro aloqalarning kengayishi kabi jarayonlar dariy tilidagi lug'atni boyitadi va uning turli qatlamlarining rivojlanishiga sabab bo'ladi². Masalan, zamonaviy siyosiy va diplomatik voqealar bilan bog'liq yangi atamalar, xalqaro tashkilotlar va texnologiyalar nomlari dariy tiliga kirib kelgan. Bu jarayonda ba'zi eski so'zlarning ma'nosi o'zgaradi yoki ular ma'nosini yo'qotib, ishlatilmay qoladi, yangi leksemalar esa paydo bo'ladi.

Xususan, dariy diplomatik lug'ati o'zgarishlarning yorqin misolidir. O'tmishda Saroy va davlat yozishmalarida ishlatilgan so'zlar bugungi kunda zamonaviy siyosiy tushunchalar bilan boyitilgan. Masalan, "shartnoma" (قانون نامه) va "bitim" (معاهده) kabi klassik atamalarga qo'shimcha sifatida, "xalqaro tashkilot" (سازمان بین المللی) va "protokol" kabi yangi terminlar kirib kelgan. Shu bilan birga, ayrim atamalar ma'nosi torayib yoki o'zgargan, ularning ishlatilish darajasi esa dolzarblikka qarab farqlanadi. Keling endi ba'zi bir diplomatik terminlar va ularning tasniflarini ko'rib chiqamiz;

— muzokara مذاکرات Birinchi so'z bu

... در دور سوم مذاکرات اخیر در زمینه لغو تحریمها... هیات دیپلماتیک ایران به ریاست عباس عراقچی شرکت کرد.

Tarjimasi: So'nggi uchinchi bosqichdagi muzokaralarda – sanksiyalarni bekor qilish masalasida ... Eron diplomatik delegatsiyasi raisi Abbas Iroqchi boshchiligidan ishtirok etdi.

مذاکرات-rasmiy diplomatlar o'rtasida ko'p uchraydigan so'z bolib va undagi muzokaralar, davlatlararo kelishuv masalalarini muhokama qilish usuli. Bu turdagi atama ko'plab fors matnlarida siyosiy yozishmalarda uchraydi, masalan o'rta asr yodgorliklarida va davlat yozuvlarida.

معاهده — mo'ahhada

... جمهوری اسلامی از معاهده همکاری های راهبردی با روسیه امضا کرد ...

Bu gapni tarjimasi: Eron Islom Respublikasi Rossiya bilan strategik hamkorlik shartnomasini imzoladi

معاهده-shartnoma, sulh, ikki yoki undan ortiq tomon o'rtasidagi rasmiy kelishuv ma'nosini anglatadi. Bu termin -dariy diplomatik leksikada qadimdan mavjud bo'lib, ko'p hollarda tarixiy hujjatlarda keladi.

سفارت — sefarat

... در جواب سفارت ایران در کابل تذکر داد ...

Bu gapni tarjima qiladigan bo'lsak: ... Kabulda Eron elchixonasi javoban eslatma berdi ...

سفارت-elchixonona, boshqa davlat bilan rasmiy munosabat yuritiladigan vakolatxonona. Arabcha kelib chiqishli bo'lsa ham, fors/dariy diplomatik matnlarda qo'llanilgan¹.

سفیر — safir

... دکتر نصیر احمد اندیشه سفیر کبیر و نماینده دائمی ج. ا. ا. در سازمان ملل متحد

Ma'nosi: Doktor Nasir Ahmad Andisha katta elchi va Afg'oniston Islom Respublikasi BMTdagi doimiy vakili ...

سفیر-bu so'z elchi, diplomatik vazifani bajaruvchi rasmiy vakil degan ma'noni anglatadi va dariy diplomatik leksikaning klassik qatlamiga kiradi.

حکومت — hokumat

حکومت-davlat boshqaruvi, rasmiy hokimiyat strukturasi hisoblanadi va siyosiy diplomatik hujjatlarda keng qo'llanadi .

قرارداد — qarārdād

... در بالا دیدیم که مرز افغانستان با چین با ... و پیام تعیین گردید ... قرار داد

O'zbek tiliga tarjima qilganda: Yuqorida ko'rganimizdek, Afg'oniston bilan Xitoy o'rtasidagi chegaralar ... xabar va maktub orqali belgilangan ... shuningdek shartnomalar (qarārdād) mavjud.

قرارداد-rasmiy shartnoma yoki bitim ma'nolarini anglatadi. Bu termin ham qadimgi diplomatik yozishmalarda uchragan bo'lib, huquqiy-siyosiy matnlarda qo'llangan.

Diplomatik yozishmalarda keng qo'llanilgan hujjatlardan yana biri نامه (nāma) bo'lib, u rasmiy maktub yoki yozma murojaatni anglatadi. Noma hukmdorlar, elchilar yoki davlat vakillari o'rtasidagi rasmiy muloqot vositasi sifatida ishlatilgan. Bunday hujjatlar orqali davlatlar o'rtasida siyosiy munosabatlar, ittifoqlar yoki kelishuvlar haqida ma'lumot almashilgan . Shuningdek, پیمان (paymān) diplomatik hujjatlar orasida ushbu termini ham keng qo'llanilgan. Bu so'z "bitim", "ittifoq"

yoki “va’da” ma’nosini bildiradi. Paymān ko‘pincha ikki davlat yoki hukmdor o‘rtasida tuzilgan siyosiy ittifoq yoki do‘stlik kelishuvini ifodalagan. Tarixiy adabiyotlarda bu termin diplomatik munosabatlarni mustahkamlovchi vosita sifatida tasvirlanadi. Qo‘shimcha qilib aytadigan bo‘lsak, Islomdan oldingi davrda فرسته (fereste) deb ataladigan maxsus elchi shoh tomonidan mamlakat tashqarisidagi xalqaro ishlarni yuritish uchun yuborilgan. Ali Akbar Dehxudo lug‘atida bu so‘z uchun quyidagi sinonimlar keltirilgan: رسول (rasul) – “xabar yetkazuvchi”, ایلچی (ilchi) – “elchi”, قاصد (qāsed) – “xabar yetkazuvchi, chopar”. Ushbu atamalar qadimda ishlatilgan bo‘lsa-da, hozirgi davrda ularning aksariyati faol qo‘llanilmaydi, faqat سفیر (safir) – “elchi” termini hozirgi zamonaviy diplomatik tilda keng qo‘llanib kelmoqda. Undan tashqari Safaviylar davrida صدراعظم (sadr-e a‘zam) termini shohdan keyin turadigan eng yuqori mansabdor shaxsni bildirgan. Bu lavozim egasi davlat boshqaruvi va tashqi siyosat bilan bog‘liq muhim masalalar uchun mas’ul bo‘lgan hamda xalqaro diplomatik aloqalarni yuritishda muhim rol o‘ynagan. Hozirgi davrda صدراعظم (sadr-e a‘zam) birikmasi dariy tilida saqlanib qolgan bo‘lib, u “bosh vazir” ma’nosida ishlatiladi .

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, dariy tilidagi diplomatik terminologiya uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanib va rivojlanib kelgan. Bu til qadim zamonlardan boshlab davlat boshqaruvi, siyosiy aloqalar va xalqaro munosabatlarda muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa Somoniylar, G‘aznaviylar va keyingi sulolalar davrida dariy tili saroy va diplomatik yozishmalarda keng qo‘llanilgan. Shu davrlarda ko‘plab siyosiy va diplomatik terminlar shakllanib, davlatlar o‘rtasidagi rasmiy muloqotning asosiy vositasiga aylangan.

Dariy tilining diplomatik leksikasi vaqt o‘tishi bilan turli tarixiy, siyosiy va madaniy omillar ta’sirida boyib borgan. Bu jarayonda arab, turkiy va keyinchalik Yevropa tillaridan kirib kelgan so‘zlar ham muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, ayrim qadimiy terminlar iste’moldan chiqib ketgan bo‘lsa, ba’zilarining ma’nosi kengaygan yoki o‘zgargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azimjanova D., Azizkhodzhayeva K. The Evolution of the Diplomatic Vocabulary of the Persian Language. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2024.
2. Ehsan Yarshater. Persian Language and Literature. New York: Columbia University Press, 2010.
3. John R. Perry. A Tajik Persian Reference Grammar. Leiden: Brill, 2005.
4. Jan Rypka. History of Iranian Literature. Dordrecht: Reidel Publishing Company, 1968.
5. Windfuhr, G. L. The Iranian Languages. London: Routledge, 2009.
6. Hillmann, M., Hanaway, W., Moayyad, H. Studies in Persian Prose and Poetry.
7. Ali Akbar Dekhoda. Lug‘at-name-ye Dekhoda. Tehron: Dekhoda Dictionary Institute, 1931-1979
9. Safa, Zabihollah. History of Persian Literature. Tehran: Ferdowsi Publications, 2003

10. Berridge G. R. Diplomacy: Theory and Practice. – London: Palgrave Macmillan, 2010. – b. 1–3.
11. The Palgrave Macmillan Dictionary of Diplomacy / Geoff R. Berridge, Lorna Lloyd. – London: Palgrave Macmillan, 2012. – b. 103.
12. Diplomacy / Henry Kissinger. – New York: Simon & Schuster, 1994. – b. 33.
13. Diplomacy: Theory and Practice / Geoff R. Berridge. – London: Palgrave Macmillan, 2010. – b. 12.
14. Satow's Diplomatic Practice / Ernest Satow. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – b. 3.
15. Diplomacy in the Muslim World / Afzal Iqbal. – Lahore: Institute of Islamic Culture, 1980. – b. 78.
16. https://en.wikipedia.org/wiki/Mujawar_Ahmad_Zyar
17. <https://ettelaat.net/1400/02/15/47798/>
18. <https://www.iranintl.com/202508231404/>
19. https://www.afghan-german.net/upload/Tahlilha_PDF/
20. <https://www.afghanistanmission.ch/fa/news/4-1398-25-2019>